



ZAMONAVIY TA'LIMDA IJODKORLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI

Bozorboyeva O'g'iloy Xasanboy qizi,
Rishton pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Pedagogik faoliyat uzluksiz davom etadigan ijod jarayoni bo'lib, ijodiy fikrlovchi pedagog, muayyan sharoitda eng yuqori samara beruvchi pedagogik tizimni yaratadi. Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish muammosi, shuningdek ijod, шахс ижодкорлиги ва fikrlash algoritmi muammolariga oid fikrlar баён этилган.*

Kalit so'zlar: *ижод, шахс ижодкорлиги, иждодий фикрлаш, rivojlanish, ta'lim, motivatsion, kognitiv, faoliyat, yondashuv.*

НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Бозорбоева О'гиллой Хасанбой кизи
Учитель специального предмета Рижтонского педагогического колледжа

Аннотация: *Педагогическая деятельность – это непрерывный творческий процесс, творчески мыслящий педагог создает в определенных условиях наиболее эффективную педагогическую систему. В данной статье описывается проблема формирования творческих качеств в современном образовании, а также идеи, связанные с проблемами творчества, творчества личности и алгоритма мышления.*

Ключевые слова: *творчество, личностное творчество, творческое мышление, развитие, образование, мотивационный, познавательный, деятельность, подход.*

THE NEED TO FORM CREATIVE QUALITIES IN MODERN EDUCATION

Bozorboyeva O'g'iloy Xasanboy qizi,
Special subject teacher at Rishton Pedagogical College

Abstract: *Pedagogical activity is a continuous creative process, a creatively thinking pedagogue creates the most effective pedagogical system in certain conditions. In this article, the problem of the formation of creativity qualities in modern education, as well as ideas related to the problems of creativity, personal creativity and thinking algorithm are described.*



Key words: *creativity, personal creativity, creative thinking, development, education, motivational, cognitive, activity, approach.*

Hozirgi zamon ta'limining bosh va asosiy vazifasi - shaxsning intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali ularni yangi bilimlarni olish, yaratishga ruhlantirishga qaratilmog'i kerak. Buning uchun esa o'qituvchi pedagogning o'zi kreativ fikrlovchi faol shaxs va mutaxassis bo'lmog'i darkor.

Ma'lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko'ra) olti yoshgacha bo'lgan bolalar 40 % iste'dod potensialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo'lar ekan. Agar shu davrda u bilan olib borilayotgan ta'lim jarayoniga faqat an'anaviy asosda yondoshilsa, undagi ijodkorlikka moyillik so'nib boradi.

O'quv-biluv faoliyati ijodkorlikka yo'naltirilsa - uning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi. Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina ob'ektning o'zi bilangina cheklanmay, ya'ni sub'ekt (bola) ning ijodkorligi, moyilligi, ehtiyojiga qarab ish tutilsa, ijobiy natijalar beradi, ya'ni ijodkorlikka bolalikdan o'rgatish mumkin va zarur.

Umuman, ulug' kashfiyot namoyondalari fikrlash algoritmini yaxshi o'zlashtirganlar, chuqur, atroflicha bilimga ega bo'lganlar. Ular asosan evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalari namoyon qilganlar.

Kreato - lotincha so'z bo'lib - yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'noni beradi.

Yaratuvchanlik va ijodkorlik metodlarini yaratishni, o'rgatishni kreativ pedagogika o'rgatadi.

Agar ta'lim jarayoni shaxsning faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyihalar jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo'nalishga ega bo'lib, shaxsning faolligi tufayli uni yangilik, ijodkorlik sari etaklaydi.

Ijodkorlik va madaniyatlilik o'quv faoliyatida doimiy tizimli kechsa, u ijodkorlik sari boradi. Shuning uchun ham o'quv jarayonidan tashqari vaqtda «texnik ijodkorlik asoslari» yoki «texnik loyihalash ijodiy asoslari» ilmiy izlanish yo'nalishidagi to'garaklar tashkil etilsa, talabaning loyihalash ijodkorligi oshib boradi. Shuning uchun ham bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli va maqsadli yo'naltirish, ularning kelgusida kasbiy mahoratli, ijodkor bo'lib etishishiga sabab bo'ladi. Tarixan ta'lim ikki madaniyat yo'nalishida rivojlangan, taraqqiy etgan. Birinchisi, gumanitar - badiiy yo'nalishda bo'lsa, ikkinchisi ilmiy va texnika yo'nalishi. Shu sababli texnik ijodiy rivojlanish konsepsiyasida texnika ta'limini insonparvarlash va nazariy muhitda rivojlanishning asosi qilib olingan. Aniq fanlarning ham rivojlanishini texnika taraqqiyoti va axborot-informatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog'lash yaxshi natijalar bermoqda. Ta'lim bilan bog'liq har qanday faoliyat loyihalashtirish asosida kechsa, dizayn bilan bog'lashda yaxshi natijalarga olib keladi. SHuning uchun kreativ pedagogika shu loyihalashtirishga asoslangan bo'ladi. Hozir texnik jihatdan katta o'sish, o'zgarishlar



davri ta'lim jarayoni oldiga ulkan vazifalarni qo'ymoqda. Ta'lim oluvchi olgan bilimlarini o'zlashtirib, ko'paytirib borishdan tashqari, o'quv-biluv jarayonida qo'shimcha bilimlar berish orqali ijodiy yondashuvga moyilliklari ortib boradi.

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, innovatsiyalar, ilg'or texnologiyalar, yangi o'quv ob'ektlari shaxsning tafakkurini abstrakt fikrlash, ijodiy fikrlar yuritishga olib keladi.

O'quv jarayonini algoritmlash, loyihalash, modullashtirish talabning o'quv jarayoniga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatini oshiradi. Ularda motivatsiyaning kuchayishi orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish asosida o'z bilimni boyitib borish ehtiyojini tug'diradi.

O'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun:

1. O'quv jarayoni o'quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo'shimcha materiallarni taklif etish va talabani izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida uni o'z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari etaklash.

2. O'quv jarayonini ham shunday o'zgartirish kerakki, talaba o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3. O'quv materillariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali talabning ijodiy fikrlashga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak.

Umuman, tarbiyachi pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.

Kreativlik – bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o'qituvchiga innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogika xususiyati haqida gap borar ekan, Jan Piajening bugungi kunda yangidan ahamiyat kasb etgan ta'lim maqsadiga bergan ta'rifini eslatib o'tamiz: "Ta'lim maqsadi oldingi avlodlar yaratgan narsalarni takrorlash bilan kifoyalanmasdan, yangicha maxsulotlarni yaratishga qodir, ijodkor, kashfiyotchi insonlarni tarbiyalashdir".

Bunday insonlarni tarbiyalash uchun pedagog o'zi ham yangilik yaratishga qodir bo'lishi kerak. Yangilik yaratish bu ijoddir. Pedagogik faoliyat uzluksiz davom etadigan ijod jarayoni bo'lib, ijodiy fikrlovchi pedagog, muayyan sharoitda eng yuqori samara beruvchi pedagogik tizimni yaratadi.

Ijod jarayonlari fan tomonidan hali to'liq tadqiq qilinmaganligi, ushbu jarayonning murakkab va serqirraligi bois, shu kungacha olimlar tomonidan "ijod" tushunchasiga turli ta'riflar berilgan. Quyida shu ta'riflardan misollar keltiramiz.

Ijod sifat jihatdan yangi bo'lgan moddiy, ma'naviy qadriyatlarni yaratish jarayoni va ushbu jarayon natijasidir.



Keng ma'noda ijod deb, yangicha natijalarni keltirib chiqaruvchi har qanday faoliyatga ham aytiladi.

“Agar inson bajarayotgan ishini to'g'ri va samaraliroq bajarishga intilsa, u bajarayotgan ish jarayoni ijod jarayoniga aylanadi” (Djon Apdayk).

Amerikalik psixolog E.Fromm “ijodkorlik” tushunchasini quyidagicha sharhlaydi. “Ijodkorlik hayratlanish va anglash turli nostandart vaziyatlarda qarorlar qabul qilish malakasi. Yangiliklarni yaratishga intilish hamda shaxsiy tajribalarni chuqur anglashga bo'lgan layoqatdir”.

Bugungi kunda pedagogika hamda ta'lim tizimi uchun zamonaviy pedagogning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi muhim masala bo'lib turibdi. Ijodiy salohiyat shaxsning integrallashgan sifati bo'lib, ijodiy faoliyatning boshlang'ich omilidir. Aynan shu salohiyat shaxsning yo'nalganligi, o'z qobiliyatlarini namoyon qila olishini belgilaydi. Unda insonning shaxsiy qobiliyatlari va tabiiy hamda ijtimoiy xususiyatlari uzviy bog'langandir.

Ijodiy salohiyat kreativlik xususiyati bilan bog'liq bo'lib, yangi g'oyalarni yarata olish; an'anaviy tafakkur sxemalaridan qochish, tafakkurning egiluvchanligi, inson xarakterining qator xususiyatlari (originallik, tashabbuskorlik, nostandartlik)da namoyon bo'ladi.

Har bir pedagog o'z ijodiy salohiyatiga ega. Bu salohiyat uning ish jarayonida orttirilgan tajriba, psixologiya, pedagogika fanlari, o'z mutaxassislik fanini bilish darajasiga, unda yangi g'oyalarni yaratish hamda tatbiq qilish ko'nikmasining rivojlanganligiga bog'liq.

Ijodni samarali bo'lishini ijodiy qobiliyatlar ta'minlaydi.

Insonda muayyan qobiliyatlarning rivojlanishi asosan uchta omil bilan belgilanadi:

- muayyan faoliyatga moyillikning mavjudligi;
- ma'lum faoliyat bilan shug'ullanishga extiyoj, qiziqishning borligi;
- ijtimoiy omil.

Bunday qobiliyatlar har qanday faoliyat turida namoyon bo'ladi - ilmiy, ishlab chiqarish, badiiy, shu jumladan, pedagogik faoliyatda ham.

Muhim ijodiy qobiliyatlar:

- muammoni ko'ra olish, ifodalay olish;
- faraz ishlab chiqish va uni tekshirish yo'llarini o'ylab topish;
- ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish;
- hulosani chiqarish va natijalarni qo'llash imkoniyatlarini ko'ra olish;
- muammoni, uning aspektlari hamda echish bosqichlarini yahlit holda ko'ra olish, uni echishga qo'shadigan o'z xissasini aniqlay olish.

Ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajalari:

Yuqori daraja – insonning bilim olishga intilishi, tafakkurining o'ziga xosligi, egiluvchanligi; tasavvurining boyligi; yangi g'oyalar yaratishga qodirligi; yangi turdagi



faoliyatga oson va tez o'tishi. Bunday insonlar ijodda yuqori muvaffaqiyatga erishadilar, turli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni egallaydilar.

O'rta daraja – inson o'z bilimlarini boyitishga extiyoj sezadi, lekin mustaqil ravishda vazifalarni bajara olmaydi, qiziqarli g'oyalar o'ylab topadi, lekin ularni to'g'ri baholay olmaydi, bajara olmaydi. Tanlovlarda ishtirok etadi.

Past daraja – inson ijodga intilish namoyish qilmaydi, tafakkuri egiluvchan emas, tasavvuri rivojlanmagan, muammolarni mustaqil echish ko'nikmalari rivojlanmagan, faoliyat natijalari taqdim etishga harakat qilmaydi.

Pedagogik ijodkorlikning muhim sharti o'qituvchining o'z kasbiga mehr qo'yanligi, unda kasbiy o'sish, rivojlanishga intilish bo'lishi.

Ijodkor pedagog vujudga kelgan vaziyatni chuqur tahlil qilib, uning mohiyatini anglay oladi, original echimini yaratadi, hayoliy eksperiment o'tkazib uni amalda qo'llaydi. Bunda yaratiladigan yangi g'oya g'oyibdan kelmaydi, balki, albatta, pedagogik-psixologik bilimlarga tayanadi.

Har qanday pedagogning ijodiy salohiyati ijodkor shaxs sifatlari, deb nomlanuvchi xususiyatlar bilan belgilanadi. Hozircha bunday sifatlarni aniqlashda olimlar bir to'xtamga kelganlari yo'q. Ayrim olimlar bunday xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritadilar:

- muqobil yo'llarni ko'ra olish;
 - oddiy va yagona to'g'ri bo'lib ko'ringan holat, fikrlarga tanqidiy yondasha olish;
 - yuzaki xulosalardan qochish;
 - muammoni chuqur anglab eta olish;
 - istiqbolli fikr olish;
 - an'anaviy bo'lib qolgan va ko'plab mutaxassislar tomonidan tan olinayotgan pedagogik g'oyalarga ko'r-ko'rona ergashishdan qochish;
 - tanish ob'ektlarda yangi, kutilmagan tomonlarni kashf eta olish;
 - qiyinchiliklardan cho'chimasdan yangilik yaratish va tatbiq qilishga tayyorlik.
- Boshqa olimlar ijodkor shaxs belgilari deb quyidagi sifatlarni sanab o'tadilar:
- tez va oson assotsiatsiya o'rnatish (diqqatini bitta fikrdan boshqa fikrga tez o'tkaza olishi, ular o'rtasida bog'lanish o'rnatish olishi);
 - hayolida obrazlarni va ularning yangi kombinatsiyalarini yarata olishi;
 - fakt, ma'lumotlarni baholay olishi va tanqidiy fikrlashi;
 - xotira sifati (xajmi etarli darajada bo'lgan, tizimlashtirilgan, tartiblashgan bilimlarga ega);
 - ma'lumotlarni ixchamlashtirish, umumlashtirish, muhim bo'lmaganlarini ajratib, chiqarib yuborishga qodir.

Uchinchi guruh mualliflar ijodkor shaxs bu olib borilayotgan faoliyatni ijodiy jarayonga aylantira oluvchi kreativlik (yaratuvchilik) qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsdir, deb ta'kidlaydilar.

V.I.Andreev ijodkor shaxslarni quyidagicha tasniflaydi. Ushbu tasnifni pedagoglarga nisbatan ham qo'llash mumkin:



- Mantiqqa asoslanuvchi nazariyotchi turiga mansub ijodkor shaxsga axborotni keng mantiqiy umumlashtirish, tasniflash va tizimlashtirish qobiliyati xos.

Bu turdagi odamlar o'z ijodiy ishlarni aniq rejalashtira oladilar, ilmiy tadqiqotni an'anaviy usullar yordamida amalga oshiradilar. Bunday shaxslarga keng doiradagi ma'lumotlarga ega bo'lish xosdir. Ular ma'lum nazariy konsepsiyalarga asoslanadilar va ularni yanada rivojlantiradilar. Bunday shaxslar boshlagan ishlarini mantiqiy yakungacha olib boradilar, xulosalarini isbotlovchi ko'plab ta'kidlovchi manbaalar keltiradilar.

Intuitsiyaga asoslanuvchi ijodkor shaxs yuqori darajada rivojlangan yangi, original g'oyalarni yaratish qobiliyati bilan xarakterlanadi, bu tipdagi insonlar yirik ixtirochilar, yangi ilmiy konsepsiya, maktab va yo'nalishlar yaratishga qodir shaxslardir. Ular an'anaviy bo'lib qolgan qarashlarga zid bo'lgan yangi g'oyalarni taklif qilishdan cho'chimaydilar, o'ziga xos fantaziya va tasavvurga ega bo'ladilar.

Amaliyotchi ijodkor (eksperimentator) o'zining original gipotezalarini amaliyotda tekshirib ko'rishga intiladi. Bu tipdagi insonlar maxsus jihozlarni qo'llab ishlashga moyil, amaliy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish qobiliyatiga egadirlar.

Tashkilotchi ijodkor jamoadagi insonlarni yangi g'oyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq qilishga yo'naltira oladi. Bunday shaxslar rahbarligi ostida yangi ilmiy maktablar hamda ijodiy jamoalar shakllanadi. Bunday insonlarga kuchli g'ayrat, kirishuvchanlik, jamoa a'zolarini ijodiy ishlarni bajarishga yo'naltira olish qobiliyati xosdir.

V.V. Kraevskiyning fikricha o'qituvchining ijodiy faoliyati ikki shaklda kechadi: birinchisi bu an'anaviy vositalarni yangicha qo'llash bo'lsa, ikkinchisi yangi vositalar, yangi yo'llarni ixtiro qilish.

Tarbiyachining ijodiy salohiyati integrativ sifat bo'lib, u o'qituvchida ijodiy faollikni rivojlantirishga bo'lgan moyillik, mustaqil bilim olish hamda yaratuvchilik qobiliyatlari darajasini belgilaydi.

Maktabgacha ta'limning faol va yetakchi sub'ektlari bo'lgan bolalarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlari, shuningdek, tasviriy san'at, mehnat, musiqa va jismoniy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari tarbiyachidan mashg'ulotlarga ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Shaxsning hissiy qobiliyatga egaligi uning atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil eta olishiga imkon beradi. Zero, bu qobiliyat nafaqat o'zligini tushunish, shu bilan birga atrofdagilarning uy-xayollari, ichki kechinmalari, orzu-o'ylarini tushunish, ularni his qila olish, ruhan yaqin bo'lishiga imkon yaratadi. Pedagogik maktablar o'quvchilarining hissiy qobiliyat va ijodiy qobiliyatga ega bo'lishlari esa ta'lim-tarbiya jarayonining faol sub'ektlari – tarbiyachilar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning mo'tadil kechishini ta'minlaydi va yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishga yordam beradi. Har bir o'quvchining individual xususiyatini inobatga olish va unga muvofiq



yondashish, shuningdek, o'quvchilarning xatti-harakatlarini to'g'ri tushunish, aytayotgan so'zlariga ishonch bildirishda bo'lajak pedagoglarning hissiy qobiliyatga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar bilan ruhiy-hissiy yaqinlik pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining garovi bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2019-2030 yillarda rivojlantirish Konsepsiyasi" 2019 yil.
2. F.Vahobova, Sh.Nabixonova, G.Yo'ldosheva, Z.Rahimova, N.Demina "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" trenerlar uchu qo'llanma Toshkent 2009 14, 81, 82 betlar.
3. Международный опыт развития предпринимательского и STEAM-образования в странах ОЭСР и в мире: Аналитический отчет /Авт-сост. Газдиева Б.А., Ахметжанова А.А., Сагындыкова Ж.О., Тавлуй М.В., Фаткиева Г.Т., Габдуллина З.Е., Аубакирова Д.С. – Кокшетау: Изд-во КГУ им. Ш. Уалиханова, 2018. 23-б
4. O'rinova Feruza Uljayevna. Universitet talabalarida intellektual kompetensiyani shakllantirish. O'rinova Feruza Uljayevna. Международный научный журнал № 7(100), часть 1 «Научный Фокус» ноября, 2023. с. 156-159.
5. O'ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo'llari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. 3. – №. 3. – с. 311-315.
6. Urinova F., Azizmatova z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
7. O'rinova f. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
8. Уринова Ф. У. Особенности развития психологии ребёнка дошкольного и младшего школьного возраста //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 68-71.
9. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – т. 4. – с. 444-448.
10. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 107-110.
11. Uljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 654-659.
12. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 47-51.



13. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE". International Conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022

14. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn:2795-4846.Vol.4/(2022).

15. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. Basics of comparative study of cosmonims (sun,moon ...) In uzbek and english languages. British journal of global ecology and sustainable development.volume-02, march, 2022 issn (e): 2754-9291

16. Urinova Feruzakhon Uldzhaevna, Abdurakhmanova Zilola Patidinovna. Forming a culture of professional activity in future teachers. Journal of intellectual prperty and human rights. Volume: 01 issue: 10 | october – 2022 issn: 2720-6882.

17. Urinov R. Innovative communication technologies in teaching foreign languages //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – С. 508-511.

18. Urinov R. Специфика англоязычной технический документации в сфере информационных технологий //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 512-516.